



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

DOI: 10.67227

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 6

2026

DIZARTRIYA NUTQ NUQSONI BO'LGAN BOLALARDA NUTQNING TO'LIQ RIVOJLANMAGANLIGINI BARTARAF ETISH TEXNOLOGIYALARI

Raxmatova Dilnavoz A'zam qizi

Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti, o'qituvchi

Annotatsiya

Dizartriya bolalarda noaniq, tushunarsiz talaffuz, nutq tezligi va ritmining pasayishi, cheklangan faol so'z boyligi va nutqning sust ohang-ifodaviy jihatdan rangsizligi, nutqning tovush va fonetik unsurlarini idrok etish hamda qayta hosil qilishdagi qiyinchiliklar kuzatiladi. Bu o'ziga xos buzilishlar diqqat jamlash, og'zaki xotira hajmi, ta'lim samaradorligining pasayishi, tengdoshlari va o'qituvchilar bilan ijtimoiy moslashish va muloqot o'rnatishdagi qiyinchiliklar, past o'zini baholash, ortiqcha tashvishlanish va hissiy beqarorlikning shakllanishi, uzoq vaqt tuzatilmasa, ikkilamchi xulq-atvor buzilishlarining rivojlanishi kabi pedagogik muammolarga olib keladi. Bu esa ularga individual yondashuv va keng qamrovli pedagogik yordam ko'rsatishni talab qiladi hamda o'quv jarayonini o'zgartirish zaruratini keltirib chiqaradi.

Kalit so'zlar: dizartriya, nutq, nuqson, muammo, individual, psixika, didaktik, o'yin, idrok, metod, texnologiya, logoped, pedagog, korreksion, tovush, xotira, diqqat.

ТЕХНОЛОГИИ ПРЕОДОЛЕНИЯ ОБЩЕГО НЕДОРАЗВИТИЯ РЕЧИ У ДЕТЕЙ С ДИЗАРТРИЕЙ

Рахматова Дилнавоз Аъзам кизи

Национальный педагогический университет Узбекистана имени Низами, преподаватель

Аннотация

У детей с дизартрией наблюдаются нечеткое, непонятное произношение, снижение скорости и ритма речи, ограниченный активный словарный запас и слабая интонационно-выразительная бесцветность речи, трудности в восприятии и воспроизведении звуковых и фонетических элементов речи. Эти специфические нарушения приводят к таким педагогическим проблемам, как концентрация внимания, объем вербальной памяти, снижение эффективности обучения, трудности в социальной адаптации и общении со сверстниками и учителями, низкая самооценка, чрезмерная тревожность и формирование эмоциональной нестабильности, развитие вторичных поведенческих расстройств, если они не корректируются в течение длительного времени. Это требует индивидуального подхода и всесторонней педагогической помощи, а также необходимости изменения учебного процесса.

Ключевые слова: дизартрия, речь, дефект, проблема, индивидуальный, психика, дидактический, игра, восприятие, метод, технология, логопед, педагог, коррекционный, звук.

TECHNOLOGIES FOR OVERCOMING GENERAL SPEECH UNDERDEVELOPMENT IN CHILDREN WITH DYSPARTHRIA

Raxmatova Dilnavoz A'zam qizi

Nizami National Pedagogical University of Uzbekistan, Lecturer

Abstract

Children with dysarthria exhibit unclear pronunciation, a decrease in speech speed and rhythm, a limited active vocabulary and a weak tone-expressive colorlessness of speech, and difficulties in perceiving and reproducing sound and phonetic elements of speech. These specific disorders lead to pedagogical problems such as concentration, verbal memory volume, decreased learning efficiency, difficulties in social adaptation and communication with peers and teachers, low self-esteem, the formation of excessive anxiety and emotional instability, and the development of secondary behavioral disorders if not corrected for a long time. This requires an individual approach and comprehensive pedagogical support, and creates the need to change the educational process.

Keywords: dysarthria, speech, defect, problem, individual, psyche, didactic, game, perception, method, technology, speech therapist, educator, correctional, sound.

Hozirgi kunda butun jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, bolalar orasida

dizartriya tarqalashining ortishi, ushbu nutq nuqsoni bolalarning maktabdagi potensial muvaffaqiyatsizligiga sabab bo'lishi mumkinligi va nutqning to'liq rivojlanmaganligini bartaraf etish texnologiyalari ularning yangi ijtimoiy sharoitlarga moslashmaslik xavfini kamaytirish imkoniyatini yaratishi omillari muammoning dolzarbligini belgilaydi. Shuningdek, dizartriya bolalarda nutqning to'liq rivojlanmaganligini koreksiyalash texnologiyalarining dolzarbligi o'z vaqtida koreksion-rivojlantiruvchi ishlarini olib borish zarurati, individual yondashuvning muhimligi, nutqqa oid bo'lmagan jarayonlar ustida ishlashning ahamiyati, koreksion ta'sirga tizimli, koreksion-rivojlantiruvchi ishda tabaqalashtirilgan, kommunikativ-faoliyatli, integratsiyalashgan, polisensor yondashuvlarga asoslangan yangi pedagogik texnologiyalarni loyihalash imkonini beruvchi zamonaviy texnik vositalarning imkoniyatlari bilan bog'liq.

Adabiyotlar tahlili

Dizartriya va nutqning to'liq rivojlanmaganligi (NTR) muammosi maxsus pedagogika hamda logopediya sohasida eng dolzarb yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Mazkur muammo nafaqat nutq faoliyatining buzilishi, balki bolaning psixik rivojlanishi, kommunikativ faoliyati va ijtimoiy moslashuviga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli olimlar tomonidan dizartriya bolalarda nutq kamchiliklarini koreksiyalash texnologiyalarini ishlab chiqish va takomillashtirish masalasiga alohida e'tibor qaratilgan.

M.Y. Ayupova logopediya sohasidagi ilmiy qarashlarida dizartriya markaziy nerv tizimining organik zararlanishi bilan bog'liq holda yuzaga kelishini, bunda artikulyatsion apparat faoliyatining yetarlicha shakllanmasligi natijasida tovush talaffuzi, nafas va ovoz hosil qilish jarayonlari buzilishini ta'kidlaydi [1, 143-b.]. Muallifning fikricha, dizartriya bolalarda nutqning fonetik tomoni bilan bir qatorda leksik-grammatik tizim ham yetarli rivojlanmaydi. Bu esa nutqning to'liq rivojlanmaganligi bilan chambarchas bog'liq holatni yuzaga keltiradi. Shuningdek, Ayupova koreksion ishlarni tashkil etishda artikulyatsion mashqlar, nutqiy nafasni rivojlantirish va fonematik idrokni shakllantirishning ahamiyatini alohida ko'rsatadi [1, 145-b.].

L.R. Mo'minova va hammualliflar maxsus psixologiya doirasida dizartriya bolalarda kuzatiladigan psixik jarayonlar xususiyatlarini tahlil qilganlar. Tadqiqotchilar diqqatning beqarorligi, xotira hajmining pastligi hamda emotsional-irodaviy sohadagi qiyinchiliklar bolaning nutq faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishini qayd etadilar [2, 182-b.]. Ularning ta'kidlashicha, bunday bolalarda nutq buzilishlari ko'pincha idrok va tafakkur jarayonlarining sust rivojlanishi bilan birgalikda namoyon bo'ladi. Shu sababli koreksion-rivojlantiruvchi ishlar faqat tovush talaffuzini tuzatish bilan cheklanib qolmasligi, balki psixik funksiyalarni ham rivojlantirishga qaratilishi zarur [2, 184-b.].

Sh.E. Toxtiyarova, Sh.D. Shakirova va N.Z. Abidovalar nutqning ontogenezdagi rivojlanishini o'rganar ekan, bolaning nutq tizimi bosqichma-bosqich shakllanishini va bu jarayonda fonetik, leksik hamda grammatik komponentlarning o'zaro bog'liqligini asoslab beradilar [3, 42-b.]. Olimlarning fikricha, nutq rivojlanishidagi har qanday organik yoki funksional buzilish keyingi bosqichlarda murakkab nutq nuqsonlariga sabab bo'ladi. Dizartriya ana shunday buzilishlardan biri sifatida bolaning bog'lanishli nutqi, fonematik idroki va kommunikativ kompetensiyasining shakllanishiga jiddiy to'sqinlik qiladi [3, 47-b.]. Mualliflar koreksion ishlarda multisensor yondashuv va o'yin texnologiyalaridan foydalanish samarali ekanligini qayd etadilar [3, 50-b.].

Rus olimi L.O. Badalyan nevropatologiya sohasidagi ilmiy izlanishlarida dizartriyaning nevrologik asoslarini chuqur tahlil qilgan. U markaziy nerv tizimining turli qismlaridagi shikastlanishlar artikulyatsion motorikaning buzilishiga olib kelishini va bu jarayon nutqning talaffuz tomoniga salbiy ta'sir ko'rsatishini ta'kidlaydi [4, 187-b.]. Muallif dizartriyaning bulbar, psevdobulbar, qobiq osti va miyachali shakllarini farqlab, har bir shakl uchun alohida koreksion yondashuv zarurligini ko'rsatadi. Ayniqsa, mushak tonusini me'yorlashtirish, logopedik massaj va artikulyatsion gimnastika usullarining ahamiyati batafsil yoritilgan [4, 190-b.].

R.I. Lalayeva va N.V. Serebryakova nutq buzilishlari va ularni koreksiyalash masalalarini tadqiq etar ekanlar, nutq nuqsonlari bolaning bilish faoliyatiga ham kuchli ta'sir qilishini ko'rsatadilar [5, 304-b.]. Ularning fikricha, dizartriya bolalarda lug'at boyligi kambag'al bo'lib, grammatik tuzilmalardan foydalanish imkoniyatlari cheklangan bo'ladi. Mualliflar fonematik eshituvni rivojlantirish, bog'lanishli nutqni shakllantirish va kommunikativ faoliyatni kengaytirishga qaratilgan mashqlar tizimini ishlab chiqqanlar [5, 307-b.]. Shuningdek, koreksion ishlarni individual yondashuv asosida tashkil etish samaradorlikni oshirishini ta'kidlaydilar [5, 310-b.].

A.A. Leontyev nutq faoliyati nazariyasida til, nutq va kommunikativ faoliyatning o'zaro bog'liqligini ilmiy jihatdan asoslaydi [6, 32-b.]. Olimning ta'kidlashicha, nutq insonning asosiy kommunikativ vositasi bo'lib, uning rivojlanishi ijtimoiy faoliyat bilan uzviy bog'liqdir. Dizartriya

bolalarda esa kommunikativ faoliyatning yetarlicha shakllanmasligi ularning ijtimoiylashuviga salbiy ta'sir qiladi [6, 35-b.]. Shu bois logopedik ishlar jarayonida bolani muloqotga faol jalb etish, nutqiy vaziyatlar yaratish va dialogik nutqni rivojlantirish muhim hisoblanadi.

V.I. Slobodchikov va E.I. Isayev inson psixologiyasi masalalarini tadqiq qilib, bolaning subyektiv rivojlanishi va psixik funksiyalarining shakllanishida kommunikativ faoliyatning o'rni katta ekanligini qayd etadilar [7, 384-b.]. Mualliflarning fikricha, nutq buzilishlari bolaning emotsional holati va o'z-o'zini baholashiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Dizatriyal bolalarda tortinchoqlik, xavotir va ijtimoiy faollikning pasayishi ko'p kuzatiladi. Shu sababli korreksion-rivojlantiruvchi ishlar psixologik qo'llab-quvvatlash bilan uyg'un holda olib borilishi lozim [7, 386-b.].

T.B. Filicheva va G.V. Chirkina maktabgacha yoshdagi bolalarda nutqning umumiy rivojlanmaganligini bartaraf etish usullarini ishlab chiqqanlar [8, 224-b.]. Olimalar fonetik-fonematik rivojlanish, lug'at boyligini kengaytirish va grammatik ko'nikmalarni shakllantirishni bir butun tizim asosida olib borishni tavsiya qiladilar. Ularning tadqiqotlarida didaktik o'yinlar, tasviriy materiallar, multimediya vositalari va interaktiv mashqlar dizatriyal bolalar bilan ishlashda yuqori samaradorlik ko'rsatishi qayd etilgan [8, 228-b.]. Mualliflar ayniqsa bog'lanishli nutqni rivojlantirishda ketma-ket hikoya qilish, rasm asosida gap tuzish va rolli o'yinlardan foydalanishni tavsiya etadilar [8, 230-b.].

Tahlil qilingan ilmiy manbalar shuni ko'rsatadiki, dizatriyal bolalarda nutqning to'liq rivojlanmaganligini bartaraf etish murakkab, ko'p bosqichli va tizimli yondashuvni talab qiladi. Korreksion-rivojlantiruvchi ishlar artikulyatsion motorika, fonematik idrok, nutqiy nafas, lug'at boyligi, grammatik ko'nikmalar va bog'lanishli nutqni parallel ravishda rivojlantirishga qaratilgandagina samarali natija beradi. Shu bilan birga, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, didaktik o'yinlar va AKT vositalaridan foydalanish bolalarda nutqiy motivatsiyani oshirib, korreksion jarayon samaradorligini kuchaytiradi.

Metodologiya

Mazkur tadqiqotda dizatriya nutq nuqsoni bo'lgan bolalarda nutqning to'liq rivojlanmaganligini bartaraf etishga qaratilgan korreksion-rivojlantiruvchi texnologiyalarning samaradorligini aniqlashga qaratilgan metodlardan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida nazariy va amaliy yondashuvlar uyg'unlashtirildi.

Nazariy metodlar sifatida pedagogik, psixologik va logopedik adabiyotlarni tahlil qilish, ilmiy manbalarni qiyosiy o'rganish hamda umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Amaliy metodlar sifatida kuzatish, suhbat, logopedik tekshiruv, artikulyatsion apparat holatini baholash, fonematik eshituvni aniqlash va nutq rivojlanish darajasini diagnostika qilish ishlari olib borildi.

Korreksion-rivojlantiruvchi ishlar davomida artikulyatsion gimnastika, logopedik massaj, nafas mashqlari, fonematik idrokni rivojlantiruvchi topshiriqlar, didaktik o'yinlar hamda AKT vositalariga asoslangan interaktiv mashqlardan foydalanildi. Mashg'ulotlar individual va kichik guruh shaklida tashkil etilib, bolalarning yosh, psixologik hamda nutqiy xususiyatlari hisobga olindi.

Olingan natijalar sifat va miqdor jihatdan tahlil qilinib, korreksion texnologiyalarning bolalar nutqini rivojlantirishdagi samaradorligi baholandi.

Natija

Dizatriya bilan og'rigan bolalarda nutqning to'liq rivojlanmaganligini bartaraf etish texnologiyalarining ahamiyati quyidagi omillar bilan bog'liq.

1-omil – korreksion jarayonning samaradorligini ortishini kafolatlaydi. Idrokining saqlangan turlari asosida turli asosida kompensator mexanizmlarni faollashtirish va ijobiy motivatsiyani rivojlantirish nutq buzilishlarini tuzatishga, ikkilamchi buzilishlarni bartaraf etishga, shuningdek, bolalarning to'liq rivojlanishiga yordam beradi. Bolaning kompensator imkoniyatlariga tayanish to'g'ri talaffuz qilinadigan tovushlar, ixtiyorsiz harakatlar, tovush birikmalari kiradi.

2-omil – psixik jarayonlarining kechish xususiyatlarini hisobga oladi. Ma'lumotlarni bola uchun jozibali shaklda taqdim etish o'quv materialining mazmunini eslab qolishini tezlashtiradi, uni mazmunli va uzoq muddatli qiladi. Ushbu jarayonda tovushlar ustida ishlashda ma'lum izchillikka rioya qilish zarur. Tovush talaffuziga patologik kuchaygan pozotonik reflekslarning (yutish qiyinchiliklari, gipersalivatsiya, ixtiyoriy motorika va koordinatsiya buzilishlari) ta'sirini ham hisobga olish va maxsus mashqlar yordamida uning oldini olish lozim.

3-omil – bolalarning korreksion mashg'ulotlarni o'tkazishga motivatsion tayyorgarligini oshiradi. Grafikli, tasvirli, audio-vizual, multimediali taqdimotlar kabi ta'lim vositalari bilan muloqot maktabgacha yoshdagi bolalarda jonli qiziqish uyg'otadi, bu esa bilish motivatsiyasi, ixtiyoriy xotira va diqqat kabi muhim tuzilmalarning shakllanishiga asos bo'ladi.

4-omil – Tizimli va faoliyatli yondashuvlar. Ular idrokning saqlangan turlari asosida kompensator mexanizmlarni faollashtirishga imkon beradi. Qo'yilgan vazifalarni hal qilishda bolaning yosh va psixologik xususiyatlariga mos ravishda fikr mulohazalar hisobga olinadi. Ular xotira va diqqatini yaxshilashga yordam beradi, til va intellektual rivojlanish uchun muhim bo'lgan ongning belgili funksiyasini shakllantirishga yordam beradi. Dizartriya nutq nuqsoni bo'lgan bolalar bilan olib boriladigan korreksion-rivojlantiruvchi ishlarni olib borishda didaktik o'yinlarni qo'llash alohida ahamiyat kasb etadi. O'yin usullari tovushlarni to'g'ri talaffuz qilishni shakllantirish, lug'atni boyitish, grammatik konstruksiyalarni qo'llash, muloqotga kirishishning barcha bosqichlarida qo'llaniladi.

Bolalarda ongning belgili funksiyasini shakllantirishga yordam beradi. Bu ularning nutq va aqliy rivojlanishi uchun zarurdir.

Pedagogikada "metod" va "texnologiya" atamaları ko'pincha sinonim sifatida ishlatiladi, lekin bu tushunchalari turlicha ma'noga ega. Ta'lim metodi – ta'lim maqsadlari, vazifalariga erishish usullari va yo'llari majmui bo'lib, logoped va bolalar o'rtasidagi o'zaro hamkorlik usuli bo'lib, uning natijasida bilim, ko'nikma va malakalarni berish va o'zlashtirish amalga oshiriladi.

Ma'lumki, metod ko'proq umumiy ilmiy asoslashga, texnologiya esa protsessual amalga oshirishga tegishli bo'lib, axborotni uzatish yondashuviga ko'ra, metod "bilish yo'li"dagi imkoniyatlar yo'lini anglashni nazarda tutadi, texnologiya esa bosqichma-bosqich ko'rsatmani bajarishga zaruratini nazarda tutadi. Shuningdek, umumlashganlik darajasiga ko'ra metod ko'proq umumiy ilmiy asoslashga qaratilgan hamda harakat usullarini real vaziyat bilan ongli ravishda bog'lashni, ularning samaradorligini baholashni, tanqidiy tahlilni va harakatlarning turli xil muqobillarini tanlashni o'z ichiga oladi va ma'lum bir vazifalarni hal qilishga qaratilgan bo'ladi hamda nimani o'qitish, nima uchun o'qitish, degan savollarga javob beradi.

Pedagogik texnologiya – bu ta'lim jarayoniga e'lon qilingan psixologik-pedagogik tamoyillar asosida tizimli ravishda qo'llaniladigan o'qitish shakllari, usullari, yo'llari, uslublari va tarbiyaviy vositalarning maxsus majmuasidir. Pedagogik texnologiya atamasiga berilgan ba'zi ta'riflarda o'qitishni tashkil etishning "shakli", pedagogik tizim sifatida (rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyasi), muayyan natijaga olib keladigan usullar va metodlarning ketma-ketligini tavsiflaydi, harakatlarning texnologik zanjirini tuzadi, ularga rioya qilish va bajarish rejalashtirilgan natijalarga erishishni kafolatlaydi.

Nutqning to'liq rivojlanmaganligi – bu murakkab nutq buzilishi bo'lib, unda nutq tizimining fonetika, leksika va grammatika tarkibiy qismlarining shakllanishi buziladi. Dizartriya o'z navbatida nutqning talaffuz tomonining buzilishi bo'lib, markaziy nerv sistemasining organik shikastlanishi bilan bog'liq. NTR va dizartriyaning birga kelishi jiddiy muammo bo'lib, uni bartaraf etish bo'yicha korreksion-rivojlantiruvchi tizimli yondashuvni talab qiladi.

Dizartriya nutq kamchiligi bo'lgan bolalarda nutqning to'liq rivojlanmaganligini korreksion-rivojlantiruvchi texnologiyalari – bu nutq buzilishlarini bartaraf etish maqsadiga erishishning obyektiv va takrorlanuvchi yo'lini aks ettiradi hamda to'liq kommunikativ funksiyani rivojlantirishga qaratilgan natijani kafolatlaydigan maxsus logopedik usullar va uslublari majmuasidir.

Ushbu texnologiyalar dizartriya artikulyatsiya, nafas olish va ovoz hosil bo'lishning buzilishi kabi belgilarining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga oladi va bolaning nutqiy salohiyatini maksimal darajada ro'yobga chiqarish va uning muvaffaqiyatli ijtimoiy moslashuvi uchun nutqning fonetika, leksika, grammatika, bog'lanishli nutq tarkibiy qismlarini rivojlantirishning aniq algoritmini o'z ichiga oladi.

Dizartriya bolalarda nutq buzilishlarini bartaraf etish texnologiyasi algoritmining tayyorgarlik bosqichida artikulyatsiya apparatning mushak tonusini me'yorlashtirish, nafas olish funksiyasi (to'g'ri nutqiy nafas olishini rivojlantirish mashqlari), mayda motorika (barmoq gimnastikasi, mayda buyumlar bilan o'yinlar, rasm chizish, qurish-yasash, applikatsiya) va fonematik eshitish va idrokni rivojlantirish (tovushlarni (nutqiy va nutqsiz) farqlash mashqlari, so'zlardagi tovushlarni tanlashga oid o'yinlar) va artikulyatsion motorikani rivojlantirish (artikulyatsiya a'zolarining kuchi, harakatchanligi va koordinatsiyasini rivojlantirish uchun mashqlar) ishlari amalga oshirildi. Logopedik mashg'ulotlar massaj usullari bilan boshlanadi yoki yakunlanadi. Dizartriya tuzatishning bahsli usullaridan biri massajdir. U nafaqat massaj qilinayotgan to'qimaga to'g'ridan-to'g'ri mexanik ta'sir ko'rsatadiki, balki to'qimalarda ayrim asab-reflektorli va gumoral o'zgarishlarni ham keltirib chiqaradi. Dizartriya logopedik ishda bo'shashtiruvchi va tetiklashtiruvchi massaj usullari qo'llaniladi. Bo'shashtiruvchi usullar mushak guruhlaridagi taranglikni bartaraf etishga, tetiklashtiruvchi usullar esa asab-mushak tizimini faollashtirishga qaratilgan. Tetiklashtiruvchi massajda ezish, shapatlash, urib-silash kabi kuchli va keskin harakatlar tavsiya etiladi. Bo'shashtiruvchi massajda esa ishqalash, silash, yengil ezish kabi harakatlar

qo'llaniladi. Dizartriyaning turli shakllarida quyidagi massaj turlari qo'llaniladi:

- bulbar dizartriya – tonusni oshiruvchi;
- psevdobulbar dizartriya – bo'shashtiruvchi;
- qobiq osti dizartriya – odatda bo'shashtiruvchi;
- qobiqli dizartriya – ko'pincha tonusini oshiruvchi;
- miyachali dizartriya – tonusini oshiruvchi

Dizartriya bolalarda nutqning to'liq rivojlanmaganligi bartaraf etishga qaratilgan didaktik materiallarni tasniflash uchun bir nechta mezonlardan foydalanish mumkin.

Didaktik materiallarni tanlashda bolaning individual xususiyatlari, dizartriyaning ifodalanish darajasi, yoshi va nutqning rivojlanish darajasini hisobga olish kerak. Ishning har xil turlari va shakllarini birlashtirgan holda materiallardan kompleks tarzda foydalanish muhimdir. Bolaning rivojlanish dinamikasini doimiy ravishda kuzatib borish va tuzatish dasturini o'zgartirish lozim. AKT (axborot-kommunikatsiya texnologiyalari)dan foydalanish ham dizartriya tuzatishning samarali usuli bo'lishi mumkin. Masalan, nutq o'stirish uchun maxsus kompyuter dasturlari yoki interaktiv o'yinlar. Ushbu tasnif logopedlar va pedagoglarning didaktik materiallarni tizimga solishga hamda dizartriya aziyat chekayotgan bolalar bilan olib boriladigan tuzatish ishlarini samarali rejalashtirishi uchun yordam beradi.

Muhokama

Dizartriya nutq nuqsoni bo'lgan bolalarda nutqning to'liq rivojlanmaganligini bartaraf etish masalasi zamonaviy logopediya va maxsus pedagogikaning eng murakkab hamda ko'p yo'nalishli muammolaridan biri hisoblanadi. Mazkur nutq buzilishi faqat tovush talaffuzi bilan chegaralanib qolmay, balki bolaning fonematik idroki, lug'at boyligi, grammatik ko'nikmalari, bog'lanishli nutqi, psixik jarayonlari va kommunikativ faoliyatiga ham sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli korreksion-rivojlantiruvchi ishlar kompleks va tizimli tarzda tashkil etilgandagina samarali natijaga erishish mumkin bo'ladi.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, dizartriya bolalarda artikulyatsion apparat mushaklarining sustligi yoki ortiqcha tarangligi nutq tovushlarini to'g'ri talaffuz qilishga jiddiy to'sqinlik qiladi. Ayniqsa, til, lab va yumshoq tanglay harakatlarining cheklanganligi natijasida tovushlarning buzib talaffuz qilinishi, nutqning noaniqligi va sekinlashuvi kuzatiladi. Bu esa bolalarning og'zaki muloqotga kirishishida qiyinchilik tug'dirib, ularda o'ziga ishonchsizlik, tortinchoqlik va ijtimoiy moslashuv muammolarini yuzaga keltiradi. Shu jihatdan logopedik massaj, artikulyatsion gimnastika va nutqiy nafas mashqlari korreksion ishlarining muhim tarkibiy qismi sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu mashqlar artikulyatsion a'zolarining harakatchanligini oshirish, mushak tonusini me'yorlashtirish va nutq apparatini faol holatga keltirish imkonini beradi.

Muhokama jarayonida dizartriya bolalarda fonematik idrokni rivojlantirish alohida ahamiyat kasb etishi aniqlandi. Fonematik eshituvning yetarlicha rivojlanmaganligi tovushlarni bir-biridan farqlash, ularni eslab qolish va qayta talaffuz qilishdagi qiyinchiliklarni kuchaytiradi. Natijada bola nafaqat noto'g'ri talaffuz qiladi, balki yozma nutqda ham xatolarga yo'l qo'yishi mumkin. Shu bois korreksion mashg'ulotlarda tovushlarni differensiallash, eshitish orqali aniqlash, taqqoslash va fonetik tahlil qilishga qaratilgan topshiriqlardan foydalanish muhim hisoblanadi. Didaktik o'yinlar, audio materiallar va multimedia vositalari ushbu jarayonning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, dizartriya bolalarda nutq buzilishlari ko'pincha psixik jarayonlarning yetarli rivojlanmaganligi bilan birga kechishi kuzatildi. Diqqatning tez chalg'ishi, xotira hajmining cheklanganligi va tafakkur operatsiyalarining sustligi bolaning o'quv faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli korreksion-rivojlantiruvchi ishlar faqat nutqni tuzatishga emas, balki psixik funksiyalarni rivojlantirishga ham qaratilishi zarur. Ayniqsa, vizual materiallar, rangli tasvirlar, interaktiv mashqlar va o'yin texnologiyalaridan foydalanish bolalarning mashg'ulotlarga bo'lgan qiziqishini oshirib, diqqat va xotira faoliyatini faollashtiradi.

Dizartriya bolalar bilan ishlashda individual yondashuvning ahamiyati ham yuqori ekanligi aniqlandi. Har bir bolaning nutqiy imkoniyatlari, nevrologik holati, psixik rivojlanish darajasi va yosh xususiyatlari turlicha bo'lgani sababli korreksion ishlar ham differensial tarzda tashkil etilishi lozim. Ayrim bolalarda tovush talaffuzi ustida ishlash ustuvor bo'lsa, boshqalarida lug'at boyligini kengaytirish yoki bog'lanishli nutqni shakllantirish asosiy vazifa bo'lishi mumkin. Shu bois logoped tomonidan tuziladigan individual dastur korreksion ishlarining samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Muhokamalar davomida AKT va innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanishning samaradorligi ham tasdiqlandi. Multimedia dasturlari, interaktiv o'yinlar, animatsion topshiriqlar va audio-

vizual materiallar bolalarda ijobiy emotsional holatni shakllantirib, mashg'ulotlarga motivatsiyani kuchaytiradi. Ayniqsa, kompyuter texnologiyalaridan foydalanish bolaning mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishga, nutqiy topshiriqlarni takroran bajarish imkonini yaratishga va korreksion jarayonni qiziqarli tashkil etishga yordam beradi. Bu esa nutqiy ko'nikmalarining tezroq shakllanishiga xizmat qiladi.

Didaktik o'yin texnologiyalarining qo'llanilishi ham muhim pedagogik ahamiyatga ega ekanligi kuzatildi. O'yin faoliyati maktabgacha yoshdagi bolalar uchun yetakchi faoliyat turi bo'lib, ular orqali nutqiy topshiriqlar tabiiy va qiziqarli shaklda amalga oshiriladi. Rolli o'yinlar, predmetli o'yinlar, rasm asosida hikoya tuzish, dialogik vaziyatlarni yaratish kabi metodlar bolalarning kommunikativ faoliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, o'yin texnologiyalari bolalarda emotsional erkinlikni ta'minlab, muloqotga kirishishdagi psixologik to'siqlarni kamaytiradi.

Muhokama natijalari shuni ko'rsatadiki, dizartriya va nutqning to'liq rivojlanmaganligini bartaraf etish uzoq muddatli, tizimli hamda kompleks pedagogik-logopedik yondashuvni talab qiladi. Korreksion ishlar artikulyatsion motorika, fonematik idrok, lug'at boyligi, grammatik tuzilma va bog'lanishli nutqni o'zaro integratsiyalashgan holda rivojlantirishga qaratilgandagina yuqori samaradorlikka erishiladi. Shu bilan birga, logoped, pedagog, psixolog va ota-onalarning hamkorligi bolaning nutqiy hamda ijtimoiy rivojlanishida muhim omil hisoblanadi.

Zamonaviy korreksion-rivojlantiruvchi texnologiyalarni qo'llash dizartriya bolalarda nutqning to'liq rivojlanmaganligini kamaytirish, ularning kommunikativ imkoniyatlarini kengaytirish va ijtimoiy moslashuvini yaxshilashda muhim pedagogik asos bo'lib xizmat qiladi.

Muhokama jarayonida dizartriya nutq nuqsoni bo'lgan bolalarda nutqning to'liq rivojlanmaganligini bartaraf etishda qo'llanilgan korreksion-rivojlantiruvchi texnologiyalarning samaradorligi turli yo'nalishlarda namoyon bo'lishi aniqlandi. Ayniqsa, artikulyatsion mashqlar, logopedik massaj, fonematik idrokni rivojlantirish, didaktik o'yinlar hamda AKT vositalaridan foydalanish bolalarning nutqiy va psixik rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Quyidagi jadvalda asosiy texnologiyalar va ularning pedagogik samaradorligi yoritilgan.

Korreksion texnologiya turi	Qo'llanilgan metod va vositalar	Rivojlantirilgan ko'nikmalar	Kuzatilgan pedagogik samaradorlik
Artikulyatsion gimnastika	Til, lab va yumshoq tanglay mashqlari	Tovush talaffuzi, artikulyatsion harakatchanlik	Tovushlarni aniq talaffuz qilish ko'nikmasi shakllandi
Logopedik massaj	Bo'shashtiruvchi va tetiklashtiruvchi massaj usullari	Mushak tonusi, nutq apparati faolligi	Nutq organlari faoliyati me'yorlashdi
Nutqiy nafas mashqlari	Nafasni boshqarish mashqlari	Nutq tempi va ritmi	Nutqning ravonligi va davomiyligi yaxshilandi
Fonematik idrokni rivojlantirish	Tovushlarni farqlash va tahlil qilish topshiriqlari	Fonematik eshituv, tovush tahlili	Tovushlarni idrok etish va ajratish qobiliyati oshdi
Didaktik o'yin texnologiyalari	Rolli o'yinlar, rasmi topshiriqlar	Lug'at boyligi, dialogik nutq	Muloqotga kirishish faolligi kuchaydi
AKT va multimedia vositalari	Interaktiv o'yinlar, audio-vizual materiallar	Diqqat, xotira, motivatsiya	Mashg'ulotlarga qiziqish va ishtirok faolligi ortdi
Mayda motorikani rivojlantirish	Barmoq gimnastikasi, konstruktor va applikatsiyalar	Qo'l harakatlari koordinatsiyasi	Nutq va motorika o'rtasidagi bog'liqlik mustahkamlandi
Bog'lanishli nutqni rivojlantirish	Hikoya tuzish, ketma-ket rasm asosida gapirish	Mustaqil fikrlash va nutqiy ifoda	Gap tuzish va voqeani izchil bayon qilish rivojlandi

Jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, dizartriya bolalarda korreksion-rivojlantiruvchi

texnologiyalarni kompleks qo'llash yuqori pedagogik samaradorlikni ta'minlaydi. Ayniqsa, artikulyatsion mashqlar va logopedik massaj nutq apparatini faollashtirishda muhim rol o'ynasa, didaktik o'yinlar va AKT vositalari bolalarning motivatsiyasi hamda kommunikativ faolligini oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, nutqiy va psixik jarayonlarni parallel rivojlantirish bolaning ijtimoiy moslashuvi hamda ta'lim jarayonidagi muvaffaqiyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Xulosa

Dizartriya nutq nuqsoni bo'lgan bolalarda nutqning to'liq rivojlanmaganligi murakkab va ko'p komponentli buzilish hisoblanib, u bolaning nafaqat nutqiy, balki psixik, kommunikativ va ijtimoiy rivojlanishiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Artikulyatsion apparat faoliyatining buzilishi, fonematik idrokning sust rivojlanganligi, lug'at boyligining cheklanganligi hamda grammatik ko'nikmalarning yetarli shakllanmaganligi bolalarda muloqot jarayonini qiyinlashtiradi va ularning ta'lim jarayonidagi faolligini pasaytiradi. Dizartriya bolalar bilan olib borilgan korreksion-rivojlantiruvchi ishlar artikulyatsion gimnastika, logopedik massaj, nutqiy nafas mashqlari, fonematik eshituvni rivojlantirish, didaktik o'yinlar hamda AKT vositalaridan foydalanish nutqiy kamchiliklarni kamaytirishda muhim ahamiyat kasb etishini ko'rsatdi. Ushbu texnologiyalar bolalarning tovush talaffuzi, bog'lanishli nutqi, lug'at boyligi va kommunikativ faolligini rivojlantirish bilan birga, diqqat, xotira va tafakkur jarayonlarini ham faollashtirishga xizmat qiladi. Korreksion ishlarning samaradorligi individual va differensial yondashuv asosida tashkil etilganda yanada ortadi. Har bir bolaning yosh, psixologik va nutqiy xususiyatlarini hisobga olish logopedik yordamning mazmunini to'g'ri belgilash imkonini beradi. Ayniqsa, multisensor yondashuv, o'yin texnologiyalari va interaktiv metodlardan foydalanish bolalarda ijobiy motivatsiyani shakllantirib, mashg'ulotlarga qiziqishni oshiradi. Shuningdek, logoped, pedagog, psixolog va ota-onalar hamkorligi korreksion-rivojlantiruvchi jarayonning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Ularning uzviy hamkorligi bolalarning nutqiy rivojlanishida barqaror ijobiy o'zgarishlarga erishish, kommunikativ imkoniyatlarini kengaytirish va ijtimoiy moslashuvini yaxshilashga yordam beradi. Zamonaviy pedagogik va logopedik texnologiyalarni amaliyotga keng joriy etish dizartriya bolalarda nutqning to'liq rivojlanmaganligini bartaraf etish jarayonini samarali tashkil etish, ularning intellektual salohiyati hamda jamiyatda faol ishtirok etish imkoniyatlarini kengaytirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ayupova M.Y. Logopediya. – Toshkent: O'zbekiston faylasuflar milliy jamiyati nashriyoti, 2007. – 143 b.
2. Mo'minova L.R., Amirsaidova Sh.M., Mamarajabova Z.N., Yakubjanova D.B. va boshq. Maxsus psixologiya: o'quv qo'llanma. – Toshkent, 2013. – 182 b.
3. Toxtiyarova Sh.E., Shakirova Sh.D., Abidova N.Z. Nutqning ontogenezdagi rivojlanishi: o'quv qo'llanmasi. – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2020. – B. 42–52.
4. Бадалян Л.О. Невропатология: учебник. – М.: Академия, 2012. – 187 с.
5. Лалаева Р.И., Серебрякова Н.В., Зорина С.В. Нарушения речи и их коррекция у детей с задержкой психического развития: учебное пособие для студентов высших учебных заведений. – М.: Владос, 2003. – 304 с.
6. Леонтьев А.А. Язык, речь, речевая деятельность. – М.: Просвещение, 2023. – С. 32–35.
7. Слободчиков В.И., Исаев Е.И. Психология человека: Введение в психологию субъективности: учебное пособие для вузов. – М.: Школа-Пресс, 2013. – 384 с.
8. Филичева Т.Б., Чиркина Г.В. Устранение общего недоразвития речи у детей дошкольного возраста. – М.: Айрис-пресс, 2008. – 224 с.